

ABZATSLARARO BOG‘LANISHNING SINTAKTIK MURAKKABLASHUVI

Samandarov Rustam Do‘syorovich,
filologiya fanlari doktori (DsC), dotsent
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Email: samandarovr962@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0007-9576-9232>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18606392>

Annotasiya. Maqolada abzaslararo bog‘lanishda applikativ modelning roli hamda ushbu bog‘lanishni ta‘minlab beruvchi applikatorlarning o‘rni xususida ma‘lumot berilgan. Abzatslararo bog‘lanishda bog‘lovchi, kirish so‘zlar, ko‘makchili qurilmalar, yuklamalar, olmoshlar, sinonimlar applikator vazifasida kelishi mumkin. Mazkur vositalar ham kamida ikki va undan ortiq sintaktik qurilmalarning o‘zidan katta birlik sintaktik sathiga kirishi uchun imkoniyat yaratishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Abzatslararo bog‘lanishning sintaktik murakkablashuvi kirish so‘z va birikmalar, undalmalar va kiritma qurilmalar orqali ro‘y berganda, ko‘pincha distant munosabat shakllanadi. Zotan, ular abzatslar tarkibida qatnashayotgan boshqa komponentlar bilan – to‘g‘ri sintagmatik munosabat tashkil eta olmaydi.

Калит сўзлар: абзацларарао боғланиши, аппликаторлар, bog‘lovchi, kirish so‘zlar, ko‘makchili qurilmalar, yuklamalar, olmoshlar, sinonimlar.

Аннотация. В статье подробно описывается роль аппликативной модели в межабзацевых связях, а также роль аппликаторов, обеспечивающих эту связь. В качестве аппликаторов могут выступать связующие, вводные слова, вспомогательные слова, предлоги, местоимения, синонимы в межабзацевой связи. Эти слова также имеют особое значение, поскольку они позволяют как минимум двум и более синтаксическим устройствам входить на синтаксический уровень большего, чем они есть на самом деле. Когда синтаксическое усложнение межабзацевых связей происходит через вводные слова и союзы, восклицания и вводные устройства, часто формируется дистанционная связь. Уже они не могут – с другими компонентами, участвующими в структуре абзацев-образовывать правильные синтагматические отношения.

Ключевые слова: межабзацевые связи, аппликаторы, связующие, вводные слова, вспомогательные устройства, загрузки, местоимения, синонимы.

Annotation. The article describes in detail the role of the applicative model in inter-paragraph connections, as well as the role of applicators that ensure this connection. Connecting words, introductory words, auxiliary words, prepositions, pronouns, synonyms in an inter-paragraph connection can act as applicators. These words also have a special meaning because they allow at least two or more syntactic devices to enter the syntactic level of more than they actually are. When syntactic complication of inter-paragraph connections occurs through introductory words and conjunctions, exclamations and introductory devices, a remote connection is often formed. They can no longer form correct syntagmatic relationships with other components involved in the structure of paragraphs.

Keywords: interlace connections, applicators, binders, introductory words, auxiliary devices, downloads, pronouns, synonyms.

Kirish. Abzatslararo bog‘lanishning sintaktik murakkablashuvi kirish so‘z va birikmalar, undalmalar va kiritma qurilmalar orqali ro‘y berganda, ko‘pincha distant munosabat shakllanadi. Zotan, ular abzatslar tarkibida qatnashayotgan boshqa komponentlar bilan – to‘g‘ri sintagmatik munosabat tashkil eta olmaydi:

Chindan ham kuchli zarb bo'ldi. Mehmonlarning darvozaboni to'pni ilib olmoqchi bo'lib ikki ko'lini olg'a cho'zganча qiyalab sakragan edi, to'pga yetolmadi-yu, ammo o'zi xuddi suvga sakragan baqadek shaloplab yerga yiqildi.

Afsuski, gapga uncha chechan emasman. Bo'lmasa sizga bu yerdgi shodlik-xurramlikni, quloqlarii qomatga keltiruvchi baxtiyor qiyqiriqlarni, osmonga minut sayin uchirilatyotgan to'p-to'p kaptarlar – hamma-hammasini ta'riflab bergan bo'lardim (X. To'xtaboyev. Sariq devni minib).

Keltirilgan misolda *Afsuski* kirish so'zi qatnashmoqda. Bunday morfologik vositalar an'anaviy grammatikalarimizda gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqasi yo'q so'zlar sifatida tavsiflanib kelmoqda. Shu bois ular gap bo'laklari sanalmaydi. Biroq tadqiqotlar ko'rsatishicha, ularning gapning kesimi bilan sintaktik aloqasi borligini kuzatamiz. To'g'ri, kirish so'zlar ham, undalmalar ham gapning kesimi bilan bevosita bog'lanmaydi. Bog'lanish bunday vaziyatda distant xarakterli bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bunday vositalar haqida so'z yuritganida A.M.Peshkovskiy quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Mazkur hodisalar gap tarkibida kuzatilsa-da, unga yotdir. Bu o'rinda badanga kirib qolgan o'qni eslash mumkin" [1].

Nazarimizda, bu o'rinda A.M.Peshkovskiyning fikri ancha mubolag'ali ko'rinadi. Chunki bu vositalarni inson badaniga qadalgan o'qqa o'xshatish masalaning real mohiyatiga unchalik to'g'ri kelmaydi, zero, kirish so'z, undalma yoki kiritma qurilmalarning gap tarkibida qo'llanishi uchun pragmatik voqelik tomonidan ehtiyoj seziladi. Shu bois G'.Abdurahmonov va A.R.Sayfullayev bunday vositalarni gapning uchinchi darajali bo'laklari vazifasida kelishini ta'kidlagan va buni ilmiy asoslab bergan edi [2].

Darhaqiqat, bunday vositalar gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklaridan farqli ravishda, jumla tarkibida qatnashayotgan bevosita ishtirokchilar bilan gapning kesimi orqali sintagmatik munosabat bog'laydi. Shuning uchun ularni G'.Abdurahmonov va A.R.Sayfullayev gapning uchinchi darajali bo'laklari deb ataydi.

Yuqorida keltirilgan misolda esa *Afsuski* kirish so'zi abzatslararo bog'lanishni yuzaga keltiruvchi vosita bo'lib, ikki abzatsning bir-biriga tirkalishida faol qatnashayotgan applikator vazifasida kelmoqda. bu esa mazkur vaziyatda kirish so'zning maqomini bir qadar oshirmoqda. Shu bilan birga, bunday vaqtda kirish so'zlar applikator vazifasida kelishi izoh talab qilmaydi, albatta. Fikrimiz isbotini quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin:

1. *Shunday qilib desangiz, shogirdmisan shogird bo'lib qoldim: sochimni oldirib, boshimga oq do'ppi, egnimga ityoqa ko'ylak kiygizib qo'yishgan. O'zim tengi bolalar qori pochchamga shogird tushganimni eshitib, havaslari kelganidanmi yoki alam qilganidanmp, ishqilpb, menga ham «Jiyda qori» deb laqab qo'yishgan.*

Rostini aytsam, qiladigan ishim uncha og'ir emas. Qori pochchamga tahorat uchun suv keltirib beraman, ko'k choy damlab beraman, dam soldirgani odamlar kelsa, ichkari

kirib bu haqda kori pochchamga xabar beraman. Bu kishining ona-bola eshagi ham bor. O'shanga yashirincham borib, kolxoziniga bedasidan o'rib kelaman, eshaklarning tagini tozalayman. Kori pochchamning katta xotini Eshon oyim qoshiga o'sma qo'yish, pishillab uxlashdan boshqasiga yaramaydi. U kishi uyqudan uyg'ongunlaricha o'choqning kulini olaman, xovli supuraman, idish-tovoq yuvaman...(X. To'xtaboyev. Sariq devni minib)

2. *Bularning hammasini rad qilish uchun baxti qaro direktor ham bir papka material to'plab, quyidagi da'volarni o'rtaga tashladi.*

Birinchidan, militsiya bo'limi qattiq turib himoya kilayotgan serjant Ro'ziyev aslida ruhiy kasal, yaqinda besh sutka jinnixonada yotib chiqdi. (Spravkaga qaralsin.)

Ikkinchidai, adolat komissiyasiga boshchilik qilayotgan polkovnik Otajonoviing o'zi ham pok emas, o'g'li ashaddiy jinoyatchi bo'lgan. Qamoqxonada yotibdi. (Spravkaga qaralsin.)

Uchinchidan, poraxo'r serjant Ro'ziyev polkovnikning tug'ishgani jiyani bo'ladi. Uni o'z uyiga olib borib olgan. (Mahalla komissiyasi bergan spravkaga qaralsin.)

To'rtinchidai, polkovnik o'rtoq Otajonov komissiya a'zolariniig kasal bo'lib qolganligidan foydalanib, oshxonaga borib, o'z xizmatini halollik bilan o'tab turgan bufetchi Zokir Zaripovning pyeshanasiga to'pponcha qadab: «O'rtoq Ro'ziyevga tuhmat qilgan edim, direktor yomon odam, tuhmatni o'sha uyushtirdi...» deb yozib berasan, bo'lmasa otib tashlayman, deb do'q urgan. (Bufetchi Zokiroviing rayispolkom raisi muovini nomiga yozgan shikoyatini ilova qilamiz.)

Xullas, ana shunday da'volardan yana yettitasi keltirilib, oxirida, biz bu adolat komissiyasiga endi ishonmaymiz, boshqa, chinakam adolatli komissiya tuzilishini so'raymiz, deb yozishibdi (X. To'xtaboyev. Sariq devni minib).

Keltirilgan misollarning birinchisida makromatn ikki komponentdan iborat bo'lib, bu ikki komponent bir-biriga *Rostini aytsam* kirish birikmasi orqali tirkalayapti. Ayni paytda mazkur kirish birikmasi applikator maqomida kelmoqda. Shunisi ham xarakteriligi, mazkur applikator makromatn sintaktik derivatsiyasi operatori vazifasini ham bajarmoqda. Zero bu applikator abzatslararo bog'lanishni ta'minlab kelmoqda.

Muhokama. Biroq makromatn komponengtlarini biz uning uning tarkibidan ajratib olsak, matn sintaktik derivatsiyasining operandlari vazifasida kelgan abzatslar endi mustaqil derivat maqomida keladi. Bu vaziyatda har bir abzatsning o'zining alohida operatori mavjud bo'ladi. Applikativ model nuqtai nazaridan esa bu operatorlar applikatorlar vazifasini bajaradi. Bizning misolda birinchi abzats operatori *shogird*, ikkinchi abzats operatori esa *ish* so'zlaridir. Chunki abzatslarning mazmun markazida aynan ana shu so'zlar turibdi. Shuning uchun ham bu so'zlarni freym deb olamiz va derivatsion jihatdan operator maqomiga ega deb hisoblaymiz.

Ikkinchi misolimizda makromatn olti komponentdan iborat. Matn tarkibidagi abzatslar makromatn sintaktik derivatsiyasining operandlari sanaladi. Olti operanddan tashkil topgan mazkur derivat bir biriga aynan kirish so'zlar orqali bog'lanayotganini

ko'ramiz. Bunda birinchi va ikkinchi abzats hamda qolgan abzatslar ketma-ket *birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan, to'rtinchidan* va *xullas* operatorlari orqali ham semantik, ham sintaktik jihatdan bog'lanib kelmoqda. Aynan ana shu operatorlar matn tarkibini kengaytirishda muhim rol bajarib, aplikativ model tamoyillariga ko'ra aplikatorlar maqomida kelmoqda va makromatn komponentlarining bir-biriga tirkalishiga yordam bermoqda. Bu vaziyatda biz makromatn sintaktik derivatsiyasida polioperatorlik hodisasiga duch kelmoqdamiz.

Umuman, makromatn tarkibidagi abzatslarni bir-biriga olmoshlar vositasida bog'lanishi ko'p hollarda ko'zga tashlanadi. Bu vaziyat kogeziya hodisasi doirasida ro'y beradi. Chunki ayni paytda ham matn klmonertlari bir-biri bilan sof sintaktik aloqaga kirishadi. To'g'ri, ba'zida makromatnlarda kogeziya hojjasini ham, klgerentlik hodisasini ham ko'ramiz. Ammo shunday bo'lsa ham olmosh vositasida ro'y beruvchi bog'lanishlilik o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki olmosh aksariyat hollarda kontakt munosabatni tashkil etadi. Distant munosabat unda juda kam kuzatiladi.

Matn tarkibidagi mustaqil gaplarni bog'lashda olmosh aplikatorlar substitut (almashtiruvchi) sintaktik funksiyasida keladi. Bunda oldingi gapdagi muayyan so'z ikkinchi gapda olmosh bilan almashtiriladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, otning o'rnida qo'llanilayotgan olmoshning "kishilik olmoshi" maqomi neytrallashadi. Zotan u muayyan otning o'rnida qo'llanilib, uni ko'rsatib keladi. Boshqacha aytganda, ayni paytda kishilik olmoshi o'z morfologik maqomini saqlagan holda ko'rsatish olmoshi funksiyasini qabul qiladi

Matn tarkibida qo'llanilayotgan bu singari olmosh aplikator kogeziya hodisasini shakllantiradi. Chunki bunda matn komponentlarining o'zaro bog'lanishi birinchidan, sintaktik maqom kasb etadi, ikkinchidan bog'lanish morfologik vosita yordamida ro'y beradi.

Natijalar. Shu narsa xarakterliki, hozirgacha aplikativ modelning ta'sir kuchi faqat bir gap doirasida o'rganilib kelinmoqda. Biroq faktik til materiali talqini aplikativ modelning qo'llanilish imkoniyati jumllalararo va abzatslararo ahamiyat kasb etishi mumkinligini ham ko'rsatmoqda. Buni biz yuqoridagi misollar tahlili jarayonida ko'rib chiqdik. Bunday hodisa o'zaro birikkan ikki abzatsning bir-biriga qorishib, birlashib ketishida ham kuzatishimiz mumkin. Shunaqa kontaminatsiya hojjasini qiyidagi abzatslarning tarnformatsiyasida kuzatishimiz mumkin:

Dadam divanga cho'kib, bolishiga suyangancha jim o'tiribdi, bir narsalar haqida o'ylayotganga o'xshaydi.

Ammo nima to'g'ridaligini bilmayman. Men bo'lsam operatsiya stolida qiynalayotgan singlimning ahvolini ko'z oldimga keltirishdan qo'rqib, jo'rtaqa Danak qori, Bodom qori, Yong'oq qori pochchamlar to'g'risida o'ylab ketdim...

Keltirilgan misolda berilayotgan ikki mustaqil abzatsni bir biriga sintaktik-semantik jihatdan bog'lib turgan vosita *ammo* zidlov bog'lovchisidir. Biroq mazkur abzatslarni quyidagi holda aplikativ model asosida qorishtirish (kontaminatsiya qilish) mumkin:

Dadam divanga cho'kib, bolishiga suyangancha jim o'tiribdi, bir narsalar haqida o'ylayotganga o'xshaydi, men bo'lsam operatsiya stolida qiynalayotgan singlimning ahvolini ko'z oldimga keltirishdan qo'rqib, jo'rtaga Danak qori, Bodom qori, Yong'oq qori pochchamlar to'g'risida o'ylab ketdim...

Transformatsiya jarayonida ikki abzats bir biriga qorishib, murakkab sintaktik qurilma qolipidagi abzatsni tashkil qilmoqda hamda bu jarayonda bitta abzats maqomidagi derivatni shakllantirmoqda. Bu vaziyatda ikkinchi abzats tarkibida kelgan *Ammo nima to'g'ridaligini bilmayman* jumlasini tushirib qoldirilmoqda. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, bu bilan makromatn semantik mazmuni keskin o'zgarishga uchramayapti. Chunki dadasini nima to'g'risida o'ylayotganiligini bilmasligi asar qahramonining *bir narsalar haqida o'ylayotganga o'xshaydi* jumlasini orqali ham namoyon bo'lmoqda. Zero, *bir narsalar* birikmasining o'zi noaniqlik mazmunini beryapti. Mazkur abzats qolipidagi makromatnning sintaktik derivatsiyasi operatori sifatida bo'lsam bog'lovchisi faollik ko'rsatmoqda. Ayni paytda mazkur so'z aplikator maqomini olmoqda.

Xulosa. Ko'rinadiki, ayni paytda ham aplikativ modelning transformatsiyaga ko'chishi va shu tarzda abzatslararo faollik ko'rsatishi uning nafaqat qandaydir bir vosita, balki katta sinergetik salmoqqa ega ekanligidan dalolat beradi. To'g'ri, sinergetika tushunchasi o'z-o'zini boshqarish ma'nosini anglatadi. Biroq til birliklarining aplikativ model doirasidagi sistem – struktur munosabatida aynan ana shu narsani kuzata olamiz [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. –М., 1956. – С.404.
2. Sayfullayev A.R. Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklarining semantikasi va grammatikasi. – Toshkent, 2000.
3. Ponomarenko Ye.V. O razvitii sistemnogo podxoda v lingvistike // Filologicheskiye nauki, 2004, №5. – S.29.